

## Psixolog bilan tanishuv

“Yer resurslarini boshqarish” fakultetida ma’ruzalar zalida joriy yilning 8 noyabr kuni 1 kurs talabalarga fakulteti dekani Sh.Narbayev, yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini H.Eshova tashabbusi bilan institut psixologi M.Muxamedova bilan tanishish va ularga “Psixologik xizmat” to’g’risida axborot berish maqsadida davra suhbatini tashkil etildi.

Yig’ilishga guruh murabbiylari ham ishtirok etishdi. Suhbat avvalida psixologi M. Muxamedova ruhiyatshunosning vazifasi nimalardan iboratligi to’g’risida talabalarga taqdimot qilib ma’lumot berib o’tdi. Shuningdek, suhbat so’ngida barcha talabalarning bir – birlarini yaxshi tanimaganliklari uchun “Tanishuv” treningini o’tkazdi.



Bunda har bir ishtirokchi o’z ismi, pozitiv xususiyatlaridan uchtasi va negativ xususiyatlaridan uchtasini aytish kerakligi topshirig’i berildi. Soat strelkasi bo’ylab har bir ishtirokchi o’z yaxshi va yomon tomonlarini sanab o’tishdi. Ayrim talabalar o’z yaxshi xususiyatlarini ham ayta olishmadi. Ularga “O’z – o’ziga baho”ning pastligi va bu xususiyatlarni o’stirish uchun ularga psixolog ko’magi lozimligi aytib o’tildi.

Ayrimlari o’larining yomon xususiyatlarini tan ola bilganliklari mardlik ekanligi aytib o’tilib, mard inson yomon xususiyatlarini yo’qota olishi uchun iroda kuchi majudligi tushuntirib o’tildi va bunday odatlardan voz kechish usullari haqida so’z yuritildi. Treningda barcha talabalar faol ishtirok etishdi. Shuningdek 3 - talabalar turar joyida fakultetning yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini H.Eshova, institut xotin-qizlar kengashi raisi Z.Hafiza, institut psixologi M.Muhammedovalar tashabbusi bilan barcha talaba-qizlar bilan “Ochiq muloqot” tarzda davra suhbatini bo’lib o’tdi.



Unda fakultet dekani muovini H.Eshova institut xotin-qizlar kengashi raisi, institut psixologi, talaba qizlarga tanishtirishdan boshlandi. Qizlar bilan doimiy ravishda ishlaydigan, har qanday holatlarda tushkunlikka yoki qandaydir muammosi bo’lgan talaba-qizlar bevosita shu ikki inson bilan doimiy birga ishlashlari to’g’risida ma’lumotlar berildi.

**YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**